

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HURMAT KATEGORIYASINING VOQEALANISHI

**Sheraliyeva Sarvinoz Jaxongir qizi**

Farg‘ona davlat universiteti Lingvistika-ingliz tili yo‘nalishi magistranti

**Abbosova Nargiza Kobulovna**

Farg‘ona davlat universiteti Katta O‘qituvchisi, PHD

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘zbek ingliz madaniyatida hurmat kategoriyasini ifodalashning o‘xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Bu borada din, madaniyat ham o‘ziga xos rol o‘ynashi eslatib o‘tilgan. Shuningdek, hurmat ifodalashda nafaqat so‘zlar bilan balki, xarakterlar orqali ifodalanishi ham izohlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *hurmat, o‘zbek, ingliz, salomlashish, yoshi ulug‘lar, erkaklar, ayollar, og‘izaki (verbal) va og‘izaki bo‘lmagan (non-verbal), eshitish odobi, suhbat.*

Hurmat, ehtirom tushunchalari barcha xalqlar uchun birdek qiymatga ega tushunchalardir. O‘z o‘rnida, xushmuomalalik ham hurmatning bir turi bo‘lib, boshqa shaxslarning his - tuyg‘ularini anglash va hurmat qilishni anglatadi. Odatda har doim ham xushmuomalalikni sezmasligimiz mumkin, ammo biz qo‘pollik yoki beparvolik xatti - harakatlarini osongina sezamiz.

O‘ylashimizcha, barcha hurmat qilinishga loyiq bo‘lib dunyoga keladi. Nima uchun boshqalarga hurmat ko‘rsatish kerakligini to‘liq tushunish uchun biz hurmatni aniqlaymiz va nima uchun bu muhimligini ko‘rsatamiz. Xo‘sh, hurmat o‘zi nima? Hurmatni inson haqida o‘ylash va yaxshi narsalarni his qilish deb ta’riflash mumkin. Bundan tashqari, bu kimgadir uning farovonligi haqida qayg‘urayotganingizni ko‘rsatadigan tarzda munosabatda bo‘lishdir. Biror kishini hurmat qilinsa, uni qadrli

inson deb bilinadi. Hurmat qilish sog‘lom munosabatlarni o‘rnatish uchun muhimdir.

Buning yana bir qator sabalari ham mavjud:

- Hurmat ko‘payadi-hurmat olish uchun uni berish kerak
- Hurmat ishonchni mustahkamlaydi
- Madaniyatli odamlar shunday qilishadi
- Agar siz odamlarni hurmat qilsangiz, bu ularni o‘zini yaxshi his qilishiga yordam beradi

- Bu yaxshi xulq-atvorni targ‘ib qiladi

Hurmatni ifodalash turli xalqlarda, tillarda bir biriga o‘xshash va farqli o‘laroq ko‘rsatiladi. Jumladan, ingliz tilida ham hurmatni ifodalash ma‘lum so‘zlar bilan yetkaziladi. Har qanday tilni o‘rganish mobaynida uning madaniyatini ham o‘rganish zarur bo‘ladi. Ko‘plab o‘zbek yoshlari ingliz tilini puxta egallashga harakat qilmoqda. O‘zbekistonlik talabalarning ko‘pi poytaxt Toshkentdagi ko‘plab universitetlarda ingliz tili kurslariga o‘qishga kirishadi. Ko‘pchilik uchun ingliz tili o‘tmishdan tanaffus bo‘lib, yangi kelajakni ifodalaydi. Yosh yigitlar uchun ingliz tili ularning biznes karyerasida tabiiy qadamdir. Bir talaba aytganidek, ingliz tili o‘rganuvchiga kuchli biznes aloqalarini o‘rnatishga yordam beradi.

Har bir mamlakat o‘z madaniyati bilan ham bir biridan tubdan farq qiladi buni so‘zlashuv jarayonidan, insonlarni ko‘rinishidan ham ajratsa bo‘ladi. Turli mamlakat vakillari o‘zlarining nutqiy faoliyatlarida ahloqi, xalqining madaniyatini aks ettirishadi. Jumladan, o‘zbek xalqining ahloqi meyoridan biri hurmat kategoriyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zbek oilasida yoshi ulug‘ a‘zolari hurmat qilishadi va ularga katta hurmat bilan qarashadi.

Ingliz tilda hurmatni ifodalashning muhim yo‘llaridan biri bu to‘g‘ri salomlashishdir. Ko‘pchilik odamlar ingliz tilida salomlashishda shunchaki, *hello, hi, hey kabi* norasmiy so‘zlardan foydalanishadi. To‘g‘ri bunday salomlashish odatdagi do‘stlar uchun yaxshi, lekin mavqei baland, yoshi ulug‘lar uchun mos kelmaydi. Hurmat qozonishni istalganda biroz rasmiy tildan foydalanish kerak bo‘ladi. Masalan ingliz tilida salomlashganda *good morning, good afternoon, good evening* kabi

soʻzlardan foydalangan maqul. Maʼlumki, bunday oddiy soʻzlar ommalashgan, lekin ularni shunchaki qoʻllash orqali xushmuomalali, hurmatga sazovor boʻlish mumkin. Agar biror kim bilan birinchi marta tanishganda shu soʻzlarga *it's pleasure to meet you!*ni qoʻshib qoʻyish ham mumkin. Ammo, salomlashganda *good night* deb salomlashish notoʻgʻri hisoblanadi chunki, ushbu soʻzlar birikmasi “tashlab ketish”, “xayr” soʻziga yaqin turadi. Yosh qizlar va oʻgʻil bolalar nafaqat ota-onalari va buvilari bilan, balki yoshi ulugʻ boʻlgan har qanday odamlar bilan ham xushmuomalalik bilan gaplashishlari kerak. Bunday munosabat nafaqat oʻzbek balki rus tillarida ham oʻz aksini topgan. Oʻzbek tilida " brother ", "sister" kabi umumiy soʻzlarni uchrata olmaymiz. Buning oʻrniga, “older brother”(aka) va “younger brother”(uka), “older”(opa) va “younger”(singil) sister uchun alohida soʻzlar mavjud. Ushbu soʻzlar, shuningdek, oilaviy kontekstdan tashqarida maʼruzachilar oʻrtasida yosh va kuch munosabatlarini oʻrnatish yoki hurmatning maʼlum darajalarini yaponcha -san qoʻshimchasidek foydalaniladi. Misol uchun, Abdurahmon-aka, Shahnoza-opa, yoki oddiygina opa-jon (soʻzma-soʻz, dear elder sister (aziz opajon), bu "Maʼam" (xonim) soʻzining ekvivalenti hisoblanadi).

Rasmiy kontekstda oʻzbeklar koʻpincha yoshi kattalarga murojaat qilishning ruscha shaklidan foydalanadilar: Ism va otasining ismi-Alisher Joʻrayevich. Yuqoridagilardan oʻzbek tilida insonlarning yoshi, mavqeiga qarab murojat qilishda foydalaniladi. Masalan, auntie (xola) yoki uncle (amaki, togʻa) soʻzlarini oʻzbek madaniyatida oʻziga rostdan ham qarindoshligi boʻlgan odamlarga nisbatan yoki boʻlmasam umuman yaqin boʻlmagan insonlarga xushmuomalalik belgisi yuzasidan qoʻllaniladi. Ingliz tilida esa bunday mahsus nomlarni uchratmaysiz, ularda asosan insonlarning kasbi, unvoniga qarab familiyalari orqali murojaat qilishadi: Dr. Jones, Professor Saunders; maktablarda esa koʻpincha oʻqituvchilarning ismi bilan: Miss Ann, Mr Smith, Mrs Smith kabi. Lekin baʼzi til maktablarida, universitetlarda oʻqituvchilar oʻzlarining familiyalari bilan murojaat qilinishlarini afzal koʻrishadi.

Umuman har qanday tashkilot rahbariga ingliz tilida *boss* deb murojaat qilinadi. Ammo koʻpgina soʻzlashuvchilarga bunday muomala qilish biroz gʻalatiidek tuyuladi.

Qulaylikni his qilish uchun ular uchun ham birinchi ismni qo‘llashadi. Bundan ham yaxshi usuli tanishgan odamingiz taklif qilgan ism bila murojaat qilishdir. Chunki ingliz madaniyatida qanday murojaat qilinishi tanishuvning avvalida aytib o‘tishadi va agar so‘ralgan nom bilan murojaat bo‘lmasa bu albatta qo‘pollik hisoblanadi. Masalan, dunyo bo‘yicha mashhur IELTS imtihoning gapirish (speaking) qismida ham qanday murojaat qilinishi salomlashgandn so‘ng so‘raladi.

Ingliz tilidan farqli o‘laroq, boshqa masalan xitoy, yapon, rus tillarida hurmatni ifodalash uchun olmoshlar yoki o‘ziga xos yo‘llardan foydalanib o‘zidan yoshi ulug‘larga, oila a‘zolariga murojaat qilishadi. Lekin ingliz tilida bunday olmoshlarni uchratilmaydi. Zamonaviy ingliz tilida ikkinchi shaxsda ko‘plik ("you" – sen yoki siz bitta so‘z orqali) bilan neytral tarzda ifodalanadi, o‘zbek tilida esa you (siz)so‘zining ko‘plik shakli begonalar tomonidan qo‘llaniladigan hurmat belgisidir va ota-onaga va boshqa keksa oila a‘zolariga murojaat qilish usuli deb qaraladi: you are right, dad - siz haqsiz dada. Ikkinchi shaxs birlikda (san) bolalarga yoki yaqin do‘stlarga murojaat qilishda ishlatiladi va boshqa holatlarda qo‘llanilsa qo‘pollik belgisi hisoblanadi. Rus tilida qoidalar o‘xshash, ammo yanada qulayroq va bolalar odatda do‘stlari va ota-onalariga Ты (birlik) deb murojaat qilishadi, Вы (ko‘plik) esa begonalar va yoshi kattalar uchun qo‘llaniladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida kishilar suhbatlashyotganda xalaqit berish yoki suhbatni buzish qo‘pollik hisoblanadi. Ingliz tilida esa bunday holatda quyidagi iboralardan foydalaniladi: *Excuse me, I’m sorry to interrupt. Would you mind helping me...?* Yoki, *Excuse me, would you mind if I get past?* Balki, bu oddiy ko‘rinishi mumkin, lekin ingliz tilida *please, thank you* so‘zlari ham juda ham muhim hisoblanadi. Juda ham mayda va oddiy narsalarni bajarishni so‘ralganda ham mazkur so‘zlardan foydalanish kerak: *could you please pass me the salt?, thank you* yoki oddiygina *please pass the salt* va keyin *thank you* deyish kifoya qiladi. Qolaversa, hurmatni faqat so‘zlar bilan emas xarakatlar bilan ham ko‘rsatiladi. *Be on time. Be punctual* kabi so‘zlarni xarakat orqali ifodalash kerakli joga vaqtida yetib borishdir. O‘zbeklarda kech qolish xarakatiga juda ham ahamiyat berilmasa ham inglizlarda bunga jiddiy diqqat qaratilib,

chuqur hurmatsizlik hisoblashadi. Har qanday xodim yoki ishchi kech qolishi mumkin lekin bu haqida xabar jo‘natib oldindan ogohlantirishi zarur. Yana bir hurmat namunasi bu tinglash (listening) odobi bo‘lib, so‘zlovchi gapiryotganda tinglovchining telefonda suhbatlashishi, yoki boshqa narsa bilan band bo‘lishi qo‘pollikdir. Suhbatda navbat kelishini sabr bilan kutish hurmatning belgisi hisoblanadi.

Shuningdek, biror bir joyda navbatda turilganda, yoshi katta odamlarga o‘z navbatini berish ingliz va o‘zbek madaniyatida hurmat belgisi sanalsa, g‘arb madaniyatida hurmatsizlikdir. Agar kimdir siz bilan gaplashsa va siz uning ko‘ziga qaramasangiz, ular sizni nimanidir yashirmoqchi yoki sirli nimadir bor deb o‘ylashlari mumkin.

Aksariyat amerikaliklar qo‘l berib ko‘rishadi. Agar biror millat vakilining dini yoki ijtimoiy qoidalari qo‘l berib so‘rashishni inkor etsa va shuning uchun o‘zini noqulay his qilsa, har doim qo‘llarni birlashtirib, boshni oldinga egib salomlashish mumkin. Ushbu harakat yordamida ular Amerikalik millat vakillik xushmuomalalik bilan qo‘l silkitishni xohlamasligingizni aytishingiz mumkin bo‘ladi. Ulardan ba‘zilari qo‘l siqishni istamasangiz, juda hayron bo‘lishadi, ammo bu yaxshi bo‘lib, O‘zini noqulay his qiladigan narsalarni qilishga xojat bo‘lmaydi.

Barcha musulmon mamlakatlarida ayol va erkak qo‘l berib so‘rashish mumkin bo‘lmagan holatlardan hisoblanadi, yevropada esa ayol bilan erkak qo‘l berib ko‘rishish odatiy holdir. Yurtimizda yosh kelinchaklar hurmat-ehtiromning eng yaxshi namunalarini ko‘rsatmoqda.

Demak, har qanday mamlakatlarda hurmat ifodalanishining verbal (og‘izaki) va non-verbal (og‘izaki bo‘lmagan) shakllari mavjud bo‘lib, ular insonlarning madaniyatiga bog‘liq holda ifodalanadi. Ular bir biriga o‘xshashi va farq qilishi mumkin. Hurmat insonlarni tinch, osuda yashashi uchun ham o‘z hissasini qo‘shadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Oskouhi F, Movahed Mohammadi H, Rezvanfar A. The role of non-verbal communication on educational performance of faculty members of Agricultural Sciences and Natural Resources University in Sari. A paper presented in agricultural sciences and natural resources conference; 2013; Sari. Sari: Mazandaran; 2013. Persian. [Google Scholar]
2. Bhatia V.K Analyzing Genre: Language Use in Professional Settings. -New York: Longman, 1993. - P. 43.
3. Iravani J. Interview Skills. Mashad: Publications of Razavi University of Islamic Sciences; 2009. Persian. ‘Мировая наука’ JNol(46) 2020.